2. Mereka sudah pergi ke Bali dan ke beberapa (= bir necha) tempat di Sulawesi.
3. Kalau kamu sudah makan, pergi ke toko membeli gula dan garam.
4. Betul, Tuan Marga tinggal di rumah nomor 21.
5. Tukang itu belum bisa bekerja, karena tidak ada lampu.
6. Ada orang lain berbicara dengan ibu di luar.
7. Kami suka tinggal di tempat yang dingin.
8. Anak – anak semua sudah makan pagi, tetapi mereka belum berangkat ke sekolah.
9. Di Jakarta panas, tetapi di Puncak sejuk.
10. Saudara sudah lupa, tetapi saya masih tahu.
11. Taruh semua kopor di bawah tempat tidur dan tas saya di belakang pintu.

d. Quyidagi dialogni to'liq Malayziya tiliga tarjima qiling.

A: Xayrli kun!

B: Xayrli kun!

A: Ismingiz nima?

B: Nama saya Shavkat.

A: Kim bo'lib ishlaysiz?

B: Saya adalah mahasiswa.

A: Qayerda o'qiysiz?

B: Di Institut Ketemuran Tashkent.

A: Boleh saya melihat kartu mahasiswa anda?

B: Ha, albatta. A: Yoshingiz nechada?

B: Saya berumur dua puluh tahun.

A: Qayerda yashaysiz?

B: Saya tinggal di daerah Mirabad.

A: Demak uyingiz institutdan uzoq emas ekanda?

B: Ya, tidak begitu jauh, kira-kira lima belas menit naik trem listrik.

A: Bagus. Saya senang berkenalan dengan Anda.

B: Saya juga begitu.

D. MUSTAQIL ISH

Darsdagi yangi so'zlar va grammatik qoidalami faol qo'llab "Bagaimanakah saya melewatkan akhir minggu" – "Men dam olish kunini qanday o'tkazdim" mavzuida insho yozing.

X bo'lim


Vaqtini ifodalovchi iboralar

Darsning maqsadi: Vaqtini ifodalovchi iboralar mavzusi bo'yicha kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: setengah, tepat, persis, lewat, kurang, seperempat, sampai, sekali, terlalu, panjang,

A.O'QISH UCHUN

HUJAN



Kemarin hujan besar sekali. Dari jam 1 sampai jam 6 hujan tidak berhenti. Biasanya bulan Maret tidak ada hujan lagi. Musim hujan ialah bulan Oktober sampai bulan Februari.

Jam 2 langit sudah mulai gelap. Semua orang mau cepat sampai di rumah. Jam 1 hujan besar turun. Untungnya saya sudah ada di rumah. Semua sepatu dan buku-buku saya taruh di atas meja. Air di jalan makin banyak. Saya takut, kalau air itu masuk rumah. "Lihat, Darta datang!" la naik sepeda motor. Pakaianya basah. Sepatunya juga basah. Kami takut banjir akan datang, karena selokan di muka rumah sudah penuh. Atap rumah kami banyak yang bocor.

Kira-kira jam 6 hujan berhenti. Air di jalan mulai turun. Tetapi di dapur kami lihat banyak air, karena atapnya bocor.

B. GRAMMATIKA

1. Vaqtini ifodalovchi so'z va iboralar

6.00 – jam enam

12.00 – jam dua belas

11.10 – jam setengah dua belas

4.10 - jam setengah lima

12.10 – jam setengah satu

Roppa - rosa – tepat yoki persis

9.00 - jam 9 *tepat (persis)* – Soat *roppa – rosa* to‘qqiz bo‘ldi.

7.05 - jam tujuh *lewat* lima – Yyyettidan besh daqiqa o‘tdi.

7.50 - jam delapan *kurang* sepuluh – O‘n daqiqa *kam* sakkiz.

10.10 - jam sepuluh *lewat* sepuluh

6.15 - jam enam *lewat seperempat*

12.15 - jam dua belas *lewat seperempat*

1.54 - jam empat *kurang* enam

4.45 - jam lima *kurang seperempat*

Nafaqat *jam enam*(soat *olti*) yoki *jam sebelas*(soat o‘n bir), balki *pukul enam* yoki *pukul sebelas* deb aytish ham mumkin. Ammo *jam so‘zi* ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llansa, *pukul* rasmiy tilga hos.

Farqni yodda saqlab qoling:

Jam 1 - soat 1.00

1 jam - 1 soat

jam 10 – soat 10.00

10 jam - 10 soat

½ (setengah) jam – soat (yarim soat)

¼ (seperempat) jam – chorak soat

2. Sampai so‘zining ikki ma‘nosi mavjud:

2.1. “- gacha” ma‘nosida:

Dari jam 1.00 sampai jam 6.00 - soat 1.00 dan 6.00 gacha naik bis dari Semarang *sampai* Solo - Semarang dan Sologacha avtobusda bormoq.

2.2. Fe‘l sifatida ‘yetib bormoq’ ma‘nosida ishlatiladi:

Kapal terbang *sampai* di Singapura jam 1 sore - Samolyot Singapura soat kechki soat 1.00 da yetib keldi.

1. sekali

Sekali so‘zi sifatdan keyin ishlatilib, ‘juda’, ‘ancha’ kabi ma‘nolarni bildiradi.

juda katta – besar *sekali*

juda ko‘p – banyak *sekali*

juda issiq – panas *sekali*

juda qimmat – mahal *sekali*

4) terlalu

terlalu – o‘zbek tiliga g‘oyat, *juda ham* deb tarjima qilinadi:

terlalu banyak – *juda ham ko‘p*.

terlalu dingin – *juda ham sovuq*.

terlalu mahal – *juda ham qimmat*.

5) Ingliz tilidagi long so‘zi ikki xil ma‘noda:

5.1 Vaqtni bildirganda lama – uzoq tarzida tarjima qilinadi.

Men uzoq kutdim – Saya menunggu *lama*

Biz ancha vaqtdan beri bu yerdamiz – Kami di sini sudah *lama*.

Men uzoq qolmayman – Saya tidak *lama*.

5.1. O‘lchovni bildirganda Malayziya tiliga panjang (uzun) deb o‘giriladi.

Bu ko‘cha uzun. – Jalan ini *panjang*.

U uzun xat yozdi. – Ia menulis surat *panjang*.

C. YANGI SO‘ZLAR

hujan – yomg‘ir
berhenti – to‘xtamoq
biasa – odatiy, har doimgi
baisanya – odatda
musim – fasl
langit – osmon
bulan – oy
gelap – qorong‘u
terang – yorug‘
cepat – tez
turun – tushmoq
naik – ko‘tarilmoq, chiqmoq
dalam – ichkari
warna – rang
putih – oq
hitam – qora
merah – qizil
pria – erkak kishi
wanita – ayol
biru – ko‘k
hijau – yashil
kuning – sariq
coklat – jiggar rang, qo‘ng‘ir
takut – qo‘rqmoq

untungnya – baxtiga
makin – ko‘payib bormoq
basah – nam, ho‘l
kering – quruq
banjir – toshqin
selokan – ariq
penuh – to‘la
bocor – teshik; sizib chiqish
atap – tom
mulai – boshlamoq
penumpang – yo‘lovchi

X bo‘lim bo‘yicha savol va amaliy mashg‘ulotlar:

a. Savollarga javob bering (matn bo‘yicha)

1. Kapan hujan besar sekali?
2. Berapa lama hujan besar turun?
3. Apakah hujan berhenti hari itu?
4. Berapa bulan hujan turun di Malaysia?
5. Dia taruh semua sepatu dan buku di mana?
6. Mengapa mereka takut?
7. Kamar yang mana airnya banyak?

b. Malayziya tiliga tarjima qiling.

1. Biz odatda shaharga soat 7.10 da boramiz.
2. Samolyot soat 9.00 da yetib keldi, lekin uning mashinasi hali kelmadi.
3. Uyga yetib kelgan paytimiz yomg‘ir to‘xtadi.
4. U oq qog‘ozni sumkasiga soldi.
5. Men bu tuflini sotib olmayman, u menga juda katta ekan.
6. Do‘stimning uyi juda uzoq, men u yerga taksida bora olmayman.
7. Men cherkovning ortidagi bog‘da qizil, sariq va yashil gullarni ko‘ryapman.
8. Ko‘chada odamlar juda ham ko‘p.
9. Sizga jiggar rang tuflni yoqadimi yoki (atau) qora tuflimi?
10. Tati mana bu qorong‘u garajga kirgani qo‘rqyapti.
11. Ismingizni ko‘k qalamda (dengan) yozing.
12. Biz mehmonxona yaqinida turamiz va biroz cho‘milamiz.
13. Yozda ko‘p (odam)lar shahar tashqarisidagi salqin joylarga (dam olgani) borishadi.
14. Alini ko‘rsangiz, unga meni kutishini aytib qo‘ying.
15. Juda uzoq (lama) kutmang.

c. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ibu menulis surat yang panjang sekali kepada kami.
2. Cepat kembali ke kantor dan minta kunci kamar kepada Pak Ibnu.
3. Kami mulai pukul 11.00 tepat.
4. Mobil biru itu berhenti di depan sekolah kami.
5. Jangan takut, kolam itu tidak dalam (chuqur).
6. Di dalam toko itu ada banyak pakaian untuk pria dan wanita dengan macam – macam (turli) warna.
7. Taruh botol kosong itu di dapur.
8. Bilang kepada pembantu, kami tidak makan siang di rumah.
9. Jam setengah sebelas sebuah bis berangkat dari Pulogadung ke Semarang.

10. Pukul 7.15 semua penumpang telah ada di terminal.
11. Tuan Jones suka makan ayam goreng di restoran dekat hotel Merdeka.
12. Di sana kita bisa membeli televisi berwarna.
13. Di musim hujan kami tidak pergi berenang.
14. Lihat, atap garasi bocor.

d. Savollarga javob bering (mantiqiy)

1. Kapan Saudara bisa keluar?
2. Harga apa biasanya naik turun?
3. Mengapa anak – anak takut masuk ke kamar?
4. Biasanya ada toilet (yoki kamar kecil) untuk siapa?
5. Berapa musim ada di Malaysia?
6. Biasanya warna jins adalah merah?
7. Kalau Saudara tidak keluar waktu hujan, pakaiannya masih bagaimana?
8. Kalau Saudara naik bis pukul 7.10 pagi saudara melihat siapa di sana?

D. MUSTAQIL ISH

Quyidagi so‘zlardan foydalanib dialog tuzing.

Ot turkumiga oid so‘zlar	Sifat turkumiga oid so‘zlar
Sumka, pirog, kopor, basseyn, qovurilgan jo‘ja, kitob, muzli suv	Manis, pedas, dingin, dalam, dekat, jauh

Namuna:

A: Lihat, pakaian itu bagus sekali.

B: Tetapi Anda melihat harganya berapa, 70.000 so‘m.

A: Oh, itu terlalu mahal.

XI bo‘lim

“Yang” “Yang mana?”

Matn: SURAT DARI KARDI.


GRAMMATIKA : “Yang” “Yang mana?”

Darsning o‘quv maqsadi: “Yang”, “Yang mana?” so‘zlari haqida kerakli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: Yang, Yang mana, bahwa, Minggu yang lalu (lewat), Bulan yang lalu (lewat), Tahun yang lalu (lewat), Beberapa hari yang lalu (lewat), Minggu yang akan datang, Bulan yang akan datang, Tahun yang akan datang.

Matn.

SURAT DARI KARDI



Kami baru menerima surat dari Kardi, seorang teman yang bekerja di Kalimantan. Dia bekerja di sebuah perusahaan kayu. Perusahaan itu juga punya pabrik yang besar. Kardi sudah enam bulan tidak pulang ke Medan. Dalam surat itu ia menulis, bahwa ia di sana mesti bekerja keras. Dia tinggal di rumah kecil. Mungkin bulan yang akan datang ia pindah ke rumah yang lebih besar dekat pabrik. Beberapa minggu yang lalu ia sakit, tetapi tidak lama. Tempat ia bekerja ada di tengah hutan. Di sana ada juga orang asing. Dua kali sebulan datang sebuah pesawat udara membawa makanan dan semua keperluan pekerja. Juga ada toko yang menjual barang-barang. Sekali seminggu ia pergi dengan teman-temannya melihat film di bioskop.

GRAMMATIKA

Yang

"yang" so'zi ko'p hollarda o'ni izohlash uchun ishlatiladi. Misollar:

pabrik yang besar – zavodning kattasi

rumah yang kecil – uying kichigi

mobil yang bagus – mashinaning ajoyibi

kertas yang merah – qog'ozning qizili

shuningdek:

pabrik besar – katta zavod

rumah kecil – kichik uy

mobil bagus – ajoyib mashina

kertas merah – qizil qog'oz

Shunday bolishiga qaramay, ular o'rtasida farq bor. Birinchi misollarda "yang" so'zi ta'kidni bildiradi. So'zma – so'z tarjima qilinganida:

**Zavod qaysiki katta, avtomashina qaysiki ajoyib, qog'oz
qaysiki qizil**

"Yang" so'zi boshqa zavodlar, uylar, mashinalar va qog'ozlardan farqlash uchun o'ni izohlab kelyapti.

Ushbu gaplarga diqqat qiling:

Kardi, seorang teman yang bekerja di Kalimantan

Kalimantanda ishlaydigan do'stim Kardi

Lampu yang saya beli di toko – Men kecha do'kondan sotib olgan chiroq.

Pabrik yang ada di tengah hutan. – O'rmon o'rtasidagi zavod.

"Qaysi?" – "Yang mana?"

Yang mana kamar Anda? – Sizning xonangiz qaysi?

Yang itu. – Ana unisi.

Yang mana Nyonya suka? – Sizga qaysi biri yoqdi?

Yang besar. – Mana bu kattasi.

YANGI SO'ZLAR.

menerima (terima) – olmoq, qabul qilmoq

barangkali – balki

perusahaan – kompaniya

kayu – yog'och, taxta

hutan – o'rmon

pabrik – zavod

bahwa – tol'diruvchi ergash gap bog'lovchisi (saya tahu bahwa dia orang Uzbek – Men uni O'zbekligini bilaman)

keras – qattiq

mungkin – ehtimol

bioskop – kinoteatr

pekerja – ishchi

bertanya – so'ramoq

pindah – ko'chmoq

beberapa – bir qancha, bir necha

tengah – o'rta, markaz

orang asing – chet ellik

menjual – sotmoq

keperluan – ehtiyoj, zarur narsalar

tamu – mehmon

11-bo'lim bo'yicha mashqlar.

O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Di restoran itu kami makan kue – kue dan minum Fanta.
 2. Jangan beli makanan di toko yang kotor itu.
 3. Kemarin seorang tamu datang naik mobil biru.
 4. Lampu mana yang rusak?
 5. Kasi saya air dingin, bukan air panas.
 6. Tadi malam kami melihat di TV Presiden dengan istrinya ada di Kuala Lumpur.
 7. Teman saya mulai belajar bahasa Malaysia dua bulan yang lalu.
 8. Piring yang saya beli kemarin di Hero terlalu mahal.
 9. Kami berhenti di Garut untuk berenang.
 10. Saya membaca di surat kabar, bahwa banyak orang yang pindah dari Jawa ke Sumatra.
 11. Saya tidak bisa menunggu terlalu lama, karena hari panas sekali.
 12. Ambillah tas yang besar dan taruh semua surat – surat ini di dalamnya.
 13. Tuan Yoko sudah lima tahun bekerja di perusahaan asing.
- Semua pakaian saya masih basah.

Malayziya tiliga tarjima qiling.

1. Bizning cho'milishni yoqtiradigan o'g'limiz bor.
2. Sen kitob do'konidan qaysi kitobni sotib olding?
3. Kimning pichog'i bor?
4. Janob Jakson o'g'lining yangi mototsikli bor.

5. O'tgan oy otam Gongkongga jo'nab ketdi.
6. Sidneydan yaqindagina yetib kelgan oilaga asosiy yo'l yaqinidan katta uy kerak ekan.
7. Mehmonxona chap tarafida chiroyli gulli bog' mavjud (kebun dengan bunga – bunga yang bagus).
8. Ular Tana Torajada uch hafta turib qaytib kelishdi.
9. Keyingi hafta bir mehmon bizning mehmonxonamizga kelar ekan.
10. Kecha Borobudur mehmonxonasida Malayziya tilida yaxshi gapiradigan bir chet ellik bilan suhbatlashdim.
11. Balki u Malayziyaga kelgusi yil qaytib kelar.
12. Men jigar ranggini (biror narsa - buyumni) yortirmayman.
13. Mana bu kimning iti?
14. Mening do'stim Mentenga ko'chmoqchi.
15. Ehtimol bu yerda yashaydigan odam zavodda ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq.

“Yang mana” olmoshi qatnashgan o'nta so'roq gap tuzing va ushbu savollarga javob yozing.

XII bo'lim.

MAVZU NOMI: Pesta matni. Payt ravishlari.

Darsning o'quv maqsadi: Malay tilidagi Payt ravishlari, so'roq olmoshi va bog'lovchilari kabilari bilan talabalarni tanishtirish.

Tayanch iboralar: waktu, kalau, kapan, sesudah, sebelum.

Matn.

PESTA

Waktu saya pulang dari kantor, saya melihat banyak makanan dan kue – kue di atas meja. Saya heran. Kemudian saya ingat, bahwa hari itu hari ulang tahun istri saya.

Karena banyak sekali kerja di kantor dan saya tiap hari sibuk, saya lupa memberi selamat dia tadi pagi.



Jam 7, kami semua berkumpul di keliling meja makan. Anak – anak menyanyi: "Panjang umurnya, panjang umurnya . . .". Semua kami mencium ibu. Ibu gembira sekali. Di tengah meja ada sebuah kue besar dan bunga – bunga.

Kira – kira jam 8 datang beberapa teman dan kenalan. Mereka semua memakai baju batik.

Kami makan bersama. Ada nasi goreng, ada sate, ada gado – gado dan makanan lain – lain. Semua senang makan masakan ibu. Kami juga tidak lupa memasang kaset dengan musik dan lagu – lagu gembira. Sekarang kami minta ibu memotong kue. Kami bercakap – cakap dengan tamu – tamu sampai jam 11. Kemudian sesudah semua tamu pulang, kami pergi tidur. Saya lihat ibu capek sekali, karena ia memasak dari pagi dan kami tidak punya pembantu.

B. GRAMMATIKA

1. waktu, kalau, kapan

Waktu - so'zi o'tgan zamonga taalluqli bo'lib, uning o'ruida *ketika* so'zi ishlatilishi mumkin. Ushbu so'z o'zbek tiliga vaqtida, paytida deb tarjima qilinadi.

Waktu (ketika) ayah bekerja di Kalimantan, ia tiap minggu menulis surat kepada kami. – Otam Kalimantananda ishlagan vaqtlarida bizga har yakshanba xat yozar edilar.

kalau – agar

Kalau kamu pergi ke pasar, jangan lupa membeli sabun. - *Agar bozorga borsang*, sovun sotib olishni unutma

kapan – qachon so'roq so'zi (olmoshi).

Kapan Tuan Jackson berangkat ke Manila? Janob Jekson Manilaga qachon jo'nab ketyapti?

Saya tidak tahu *kapan* ibu pulang – Men oyim qachon kelishlarini bilmayman.

2. sesudah, sebelum – keyin, oldin

Sesudah semua tamu pulang, kami pergi tidur – Hamma mehmonlar uylariga ketganlaridan (tarqalganlaridan) keyin biz uxlagani yotdik.

Sesudah berenang, kami duduk di bawah pohon – Cho'milib bo'lgandan keyin biz daraxt tagida o'tirdik.

Sebelum kembali ke Yegara, ia pergi melihat Borobudur – U Evropaga qaytishdan avval Borobudurni ko'rgani bordi.

Sebelum berangkat ke kantor, ia minum secangkir kopi – U ofisga jo'nab ketishdan oldin bir chashka kofe ichdi.

YANGI SOʻZLAR.

pesta – bayram, kecha

hari ulang tahun – tugʻilgan kun

sibuk – band

sabun – sovun

mencium – oʻpmoq

gembira – xursand bolmoq

kenalan – tanish

memakai (pakai) – kiyimoq, foydalanmoq

memberi selamat – tabriklamoaq

berkumpul – toʻplanmoq

(se)keliling – atrofi

menyanyi – kuylamoq

lagu – qoʻshiq

memotong (potong) – kesmoq

capek – charchamoq

baju – kiyim

bersama – bilan birga

12- boʻlim boʻyicha mashqlar.

D. MASHQLAR

a. Berilgan jumalarga savol tuzing.

1. Dia melihat banyak makanan dan kue – kue di atas meja.(2)
2. Dia heran.(2)
3. Hari ulang tahun istrinya.(1)
4. Dia lupa memberi selamat tadi pagi. (1)
5. Ibu gembira sekali, karena keluarganya ingat dan memberi selamat

kepadanya.(1)

6. Kira – kira jam 8 datang beberapa teman dan kenalan.(2)
7. Ada nasi goreng, ada sate, ada gado – gado.(1)
8. Mereka bercakap – cakap dengan tamu – tamu sampai jam sebelas(1)
9. Dia lihat ibu capek sekali, karena dia memasak dari pagi.(1)

b. Malayziya tiliga tarjima qiling.

1. Bayramga borganimizda batik kiyamiz.
2. Ona hamma bolalarini koʻrganidan xursand.
3. Yuvinib boʻlgandan keyin, biz uy oldida oʻtirdik.
4. Yana qachon yigʻilamiz va qoʻshiq kuylaymiz?
5. Ukam uxlashdan oldin onamni oʻpib qoʻydi.
6. Hamma qadrdon doʻstlarni (teman lama) koʻrganidan xursand.
7. Agar taksida ketsangiz, soat 6.00 da yetib borasiz.
8. Sizning tugʻilgan kuningizda tortni kim kesadi?
9. Yomgʻirʻyogʻsa, bizning uyimizda toshqin boʻladi.
10. Men bugun juda ham charchadim. Kinoteatrga bormayman.
11. Nonni kesishdan avval, u pichoqni oldi.
12. Biz hammamiz Ryantolar uyidagi kechaga boramiz.
13. Agar mening haydovchimni koʻrsang, unga idoraga borishimni aytib qoʻy.
14. Tushlikdan soʻng biz Senayangga choʻmilgani bormoqchimiz.

c. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Sesudah minim teh mereka keluar membaca surat kabar.
2. Sebelum gelap, pasanglah lampu dan tutuplah semua jendela.
3. Kalau ada pesta di kampung semua orang datang.
4. Ketika temanku Asman tinggal di Amerika, dia menulis surat kepada aku.
5. Kapan Saudara menjual rumah itu kepada Tuan Rasyid?
6. Bulan yang akan datang kalau istriku kembali dari Bandung, kami akan pergi ke Danau Toba dan tinggal di sana beberapa hari.
7. Kalau tidak ada air panas, saya tidak akan mandi, kata orang Jepang itu.

8. Dua bulan sesudah Tahun Varu, mereka pindah ke Kebayoran.
9. Di bawah tempat tidur aku melihat sebuah kopor kecil.
10. Orang sakit mesti pergi ke dokter.
11. Tukang pos belum datang, biasanya ia datang jam 11.
12. Pasang lampu di luar, tamu-tamu kita akan datang.
13. Saya belum tahu, siapa akan memotong ayam itu.
14. Kami naik mobil keliling kota.

d. Savollarga javob bering.

1. Kapan Saudara akan pergi ke dokter?
2. Sebelum makan, saudara mesti melakukan apa?
3. Sesudah makan, saudara mesti melakukan apa?
4. Sebelum masuk ke kelas saudara mesti melakukan apa?
5. Sesudah membeli mobil, saudara melakukan apa?
6. Sebelum naik kereta di bawah tanah (metro)

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq.

Yangi so'zlar va grammatik qoidalarni qo'llab "Hari ulang tahun"
("Tug'ilgan kun") mavzuida insho yozing.

XIII-bo'lim.

DI RESTORAN matni. Fe'llar. ber- old qo'shimchali fe'llar.

Darsning o'quv maqsadi: Malay tilida fe'llarning shakllari va old qo'shimchalar orqali so'zlarni fe'lga aylantirilishini o'rganish.

Tayanch iboralar: ada, to be, o'timli fe'l, me- old qo'shimchali fe'llar, mem, meng old qo'shimchali fe'llar.

Matn.

DI RESTORAN



- Minta satu botol lagi Coca Cola.
- + Tidak ada lagi, Tuan. Coca Cola sudah habis. Ada Sprite.
- Baik, minta Sprite. Jangan lupa taruh es. Saya haus sekali. Ara makanan yang ada?
- + Ada soto, ada mie goreng, ada sate ayam. Yang mana Tuan suka?
- Kasi soto dengan nasi satu piring. Jam berapa sekarang? Anda sudah mau tutup?
- + Betul, Tuan. Kami sudah mau tutup. Hari sudah jam 11 lewat.

Buru-buru Ardi makan soto. Soto itu panas dan ia lapar. Dia mesti menunggu beberapa menit. Di restoran itu tidak ada orang lagi. Hari sudah jauh malam. Dia harus lekas pulang, karena hari akan hujan. Dia baru pulang dari bioskop dan sebelumnya ia pergi kuliah. Dia cepat membayar dan berlari ke terminal bis.

B. GRAMMATIKA

Fe'llar

Avvalgi darslarda uchratganimizdek, Malayziya tilida o'tgan zamon fe'llari ko'plik yoki birlikda tuslanmaydi. Shuningdek, biz Malayziya tilida "ada" so'zi ingliz tilidagi "to be" yordamchi fe'li ma'nosida ba'zan tushib qolishini ko'ramiz:

Mana bu uy yangi - Rumah ini baru.

Mening otam o'qituvchi - Ayah saya guru.

Ona(m) betob - Ibu sakit.

Lekin o'rin-joy ko'rsatish kerak bo'lganida, odatda, *ada* so'zi ishlatiladi.

Misollar:

Mr Sukoto hozir ofisda - Pak Sukoto *ada* di kantor sekarang.

Ona(m) shahar tashqarisida. - Ibu *ada* di luar kola.

Coca Cola masih *ada di sana* - Coca Cola hali ham u yerda.

1. Malayziya tilida fe'llar 1 toifaga bo'linadi:

1.1 Old qo'shimchasiz fe'llar.

- pergi - bormoq
- datang – kelmoq
- makan - yemoq
- minum - ichmoq
- tinggal – yashamoq, turmoq
- pulang – uyga qaytmoq
- kembali - qaytmoq
- pindah – ko'chmoq
- tidur - uxlamoq
- duduk – o'tirmoq

2.2 Ber - old qo'shimchali (old qo'shimchali) fe'llar

Bunday fe'llar asosan o'timsiz bo'lib, ulardan so'ng to'ldiruvchi ishlatilmaydi.

- berbicara – gaplashmoq
- berenang – cho'milmoq
- bekerja - ishlamoq
- belajar – o'qimoq, o'rganmoq
- berangkat – jo'nab ketmoq
- berjalan - yurmoq
- bermain – o'ynamoq
- bertemu - uchrashmoq
- berhenti – to'xtamoq

ESLATMA: *Belajar* va *bermain* fe'llari bu qoidadan istisno hisoblanadi.

a. Ular o'timli fe'l bo'lib kelishi ham mumkin.
Kami belajar bahasa Inggris – Biz ingliz tilini o'rganamiz.

Mereka bermain tennis – Ular tennis o'ynayapti.

b. Og'zaki nutqda ba'zi hollarda “ber-” old qo'shimchasi tushib qolishi ham mumkin:
berbicara: Ayah bicara dengan temannya. – Otam do'sti bilan suhbatlashyapti.
berjalan: Hadi jalan ke sekolah. – Hadi maktabga ketyapti.

bermain: Saya tidak suka main bola. – Men to'p o'ynashni yoqtirmayman.

- c. “bekerja” fe'lidagi *ber-* old qo'shimchasi keyingi bo'g'in ta'sirida “be-” shakliga;
- d. “belajar” fe'li “ber-” old qo'shimchasi *ajar* soziga birikkanida, so'z o'zagidagi *r* harfi ta'sirida “bel-” shakliga o'zgargan.

1. “me-” old qo'shimchali fe'llar

“me-” old qo'shimchasi ko'p hollarda so'z o'zagining boshlang'ich tovushiga qarab *mem-*, *men-*, *meng-*, *meny-* shakllarini oladi.

1.1 Agar so'z ozagi *b* undoshi bilan boshlansa, u holda *mem* - old qo'shimchasi ishlatiladi:

So'z o'zagi	“me-“ old qo'shimchasi shakli	So'z ma'nosi
Bayar	membayar	to'lamoq
Beli	membeli	sotib olmoq
buka	Membuka	ochmoq
Baca	membaca	o'qimoq

1.2 Agar so'z ozagi *p* undoshi bilan boshlansa, bu holda ham “mem-“ old qo'shimchasi ishlatiladi, biroq o'zkdagi *p* tushib qoladi.

So'z o'zagi	“me-“ old qo'shimchasi shakli	So'z ma'nosi
Potong	memotong	kesmoq
pasang	Memasang	yoqmoq (chiroqni,...)
pukul	memukul	urmoq
pakai	memakai	foydanamoq, kiymoq

1.1 Agar soʻz ozagi *d, c, yoki j* undoshi bilan boshlansa, *u* holda *men-* shakli ishlatiladi:

Soʻz oʻzagi	“me-“ old qoʻshimchasi shakli	Soʻz maʼnosi
dorong	mendorong	surmoq
dengar	mendengar	eshitmoq
cuci	mencuci	yuvmoq
curi	mencuri	oʻgʻirlamoq
jual	menjual	sotmoq
jahit	menjahit	tikmoq

1.1.1. *t* undoshi bilan boshlangan soʻzlarga ham huddi shu *men-* shakli ishlatilsa ham, lekin *t* undoshi assimilyatsiyaga uchraydi.

Soʻz oʻzagi	Me – old qoʻshimchasi shakli	Soʻz maʼnosi
tulis	menulis	yozmoq
tolong	Menolong	yordam bermiq
Tukar	menukar	almashtirmoq

1.4 Har qanday unli va *g* yoki *h* undoshi bilan boshlangan soʻzlarga *meng* - old qoʻshimchasi ishlatiladi:

Soʻz oʻzagi	“me-“ old qoʻshimchasi shakli	Soʻz maʼnosi
ambil	Mengambil	olmoq
isi	mengisi	toʻldirmoq(formani,...)

Goring	Mengoreng	qovurmoq
Gambar	menggambar	rasm chizmoq
Hitung	menghitung	sanamoq

1.4.1 Agar soʻz oʻzagi *k* undoshi bilan boshlansa, *u* holda ham *meng* - shakli ishlatiladi, lekin *k* undoshi tushib qoladi:

Soʻz oʻzagi	“me-“ old qoʻshimchasi shakli	Soʻz maʼnosi
kirim	Mengirim	joʻnatmoq
kunci	mengunci	qulflamoq

1.5 Agar soʻz oʻzagi *s* undoshi bilan boshlansa, *meny* - shakli ishlatiladi, lekin *s* undoshi tushib qoladi:

Soʻz oʻzagi	“me-“ old qoʻshimchasi shakli	Soʻz maʼnosi
Simpan	menyimpan	saqlamoq
Sapu	menyapu	supurmoq
Sisir	Menyisir	taramoq

1.6 Agar soʻz ozagi *l, r, m, n* undoshlari yoki *ny* harfli birikmasi bilan boshlansa, *u* holda *me-* shakli ishlatiladi.

Soʻz oʻzagi	“me-“ old qoʻshimchasi shakli	Soʻz maʼnosi
Lempar	melempar	otmoq, irgʻitmoq
Rokok	merokok	chekmoq
Masak	Memasak	pishirmoq
Nanti	Menanti	kutmoq
Nyanyi	Menyanyi	kuylamoq

1.6 me- old qo'shimchasi adabiy tilda ishlatilib, u og'zaki nutqda ko'pincha tushib qoladi.

Rasmiy: Saya memanggil sopir.

Og'zaki: Saya panggil sopir.

Rasmiy: Ibu membeli daging.

Og'zaki: Ibu beli daging.

Rasmiy: Saudara menolong saya.

Og'zaki: Saudara tolong saya.

“Me-“ old qo'shimchasi fe'llarning lug'aviy ma'nosini bilish uchun mazkur so'z o'zagini aniqlashimiz kerak. Albatta, lug'atdan topishni o'rganib olish uchun ma'lum vaqt kerak.

Eslatma: Bo'lishli va bo'lishsiz buyruq gaplarda *me-* old qo'shimchasi ishlatilmaydi.

Ambil kertas dari meja – Stoldan qog'ozni ol.

Panggil Hamid – Hamidni chaqir.

Kunci semua pintu dan jendela! – Hamma eshik va derazalarni berkiting!

Tulis nama Anda di sini – Bu yerga ismingizni yozing.

Jangan potong roti ini! – Bu nonni kesmang!

4. Lagi – boshqa, yana

Minta satu botol lagi – Yana bir butilka (shisha) bersangiz!

Polisi datang lagi – Politsiya yana keldi.

Ibu tidur lagi – Ona(m) yana yxlayapti.

Dua hari lagi – Yana ikki kun, ikki kundan so'ng.

Sekali (satu kali) lagi – Yana bir marta.

Tidak ada lagi – Boshqa yo'q (qolmadi).

Tina tidak ada di sini lagi – Tina bu yerda boshqa bo'lmaydi.

Dia tidak bekerja di sini lagi – U bu yerda boshqa ishlamaydi.

C. YANGI SO'ZLAR

lapar – och

haus – chanqoq, chanqagan

buru – buru – shoshilmoq

lekas – erta, tez

kuliah – ma'ruza, dars (universitetda)

menelepon – telefon qilmoq

bola – to'p, futbol

bandar udara - aeroport

rambut – soch

11- bo'lim bo'yicha mashqlar.

. MASHQLAR

a. Savollarga javob bering (matnga binoan)

1. Siapa masuk ke restoran untuk makan malam?
2. Apakah ada ayam goreng di restoran tersebut?
3. Mengapa dia bilang “ taruh es di dalam minuman?
4. Menurut gambar yang di halaman 71 ada berapa orang?
5. Dia pulang naik apa?
6. Mengapa dia lekas pulang?

b. Me -, mem-, men-, meng-, meny- old qo'shimchalardan mosini tanlang.

tari - oynamoq, raqsga tushmoq
bawa - olib bormoq, tashimoq
tukar - almashtirmoq
gosok - artmoq, cho'tkalamoq
pukul - urmoq
pakai - kiymoq, foydalanmoq
masak - ovqat pishirmoq
telepon - qo'ng'iroq qilmoq
lihat - ko'rmoq
tutup - berkitmoq
dengar- eshitmoq
jawab - javob bermoq
pasang - yoqmoq, o'rnatmoq
curi - o'g'irlamoq

c. "me -" old qo'shimchasing mos shakli bilan qavslarni oching.

1. Saya tidak tahu, siapa yang (curi) buku – buku saya.
2. Dalam surat itu ia (tulis), bahwa ibunya sakit.
3. Ibu itu (bawa) anaknya ke rumah sakit.
4. Pak Karman (potong) rambut Dardi.
5. Tak ada orang yang bisa (tolong) saya.
6. Jangan lupa (simpan) uang itu di dalam tas.
7. Kemarin, waktu saya mau tidur, saya (lihat) kucing masuk ke kamar.
8. Lihat, anak perempuan itu sudah bisa (jahit) pakaiannya.
9. Adik mau (pasang) TV, tetapi listrik mati.
10. Tukang itu (buat) meja kecil untuk dapur kami.
11. Pak Hasan mau (jual) mobilnya.

d. Malayziya tiliga tarjima qiling.

1. Agar taksida borishni xohlasangiz, 17 00 11 raqamiga qo'ng'iroq qiling.
2. Men "Kartika Plaza" dan tashqariga chiqqanimda, o'sha haydovchi u yerda yo'q edi.
3. Men yana doktorga borishimga to'g'ri keladi.
4. Boshqa mehmon qolmagani sababli, ular restoranni yopdilar.
5. Men pochta qaerda ekanini bilmayman.
6. Aeroport bizning mehmonxonamizdan qanday uzoqlikda?
7. Avtobus Wisma Nusantaraning oldida to'xtadi.
8. Wira xonim bilan gaplashsam bo'ladimi?
9. Biz stansiyagacha yurib bordik va chipta sotib oldik.
10. Idorada juda uzoq qolib ketma!
11. Eshikni yoping va tufingizni bu yerga qo'ying.
12. Yomg'ir yog'ayotgani tufayli men uyga tez qaytishim kerak.
13. U poyezd qachon jo'nashini so'radi.
14. Bu jomadonni ochmang, iltimos!
15. Janob Ong bu yerda boshqa ishlamaydi; U Gongkongga jo'nab ketgan.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq.

Buru – buru ravishi bilan boshlanuvchi 10 (o'n) ta gap tuzing. Ber- va me-old qo'shimchali fe'llarning qo'llanishiga e'tibor bering.

Namuna:

Buru-buru dia menutup pintu rumah, karena dia tidak mau terlambat lagi untuk kelas Malaysia.

XIV-bo'lim.

DI TAMAN SURAPATI matni.GRAMMATIKA. –lah suffiksi. Ko'plik.Malay tilidagi ravishlar.

Darsning o'quv maqsadi: Malay tilidagi ravishlarning gapda qo'llanilish o'rni hamda ko'plik shakllari to'g'risidagi talabalarni bilimni kengaytirish.

Tayanch iboralar: suffiks, buyruq mayli, ot turkumi, ravish, semua, beberapa, banyak, sedikit.

Matn.

DI TAMAN SURAPATI

Hari bagus. Matahari bersinar. Ada banyak orang di Taman Surapati. Ada ibu – ibu berjalan – jalan dengan anak – anaknya di sekeliling kolam. Anak – anak itu bermain dengan pasir.

Seorang ibu berteriak: "Awas! Jangan jatuh ke dalam kolam. Kolam itu dalam."

Anak – anak itu melihat banyak ikan berenang di dalam air. Air itu tidak kotor. Burung – burung terbang dan mengambil butir – butir roti yang ada di atas bangku. Beberapa ekor anjing menyalak.

Seorang pemuda duduk dengan pacarnya di atas rumput. Ia memegang tangan gadis itu. Mereka mendengarkan musik di radio kecil. Mereka senang dan tertawa. "Mari kita pergi,"

kata pemuda itu. Pacarnya menjawab, "Pukul berapa sekarang? Tunggu sebentar. Aku mau membaca cerita pendek ini." Ia mengeluarkan sebuah majalah dari tasnya.

Tidak lama sesudah itu hari mulai gelap. Matahari menghilang di belakang awan.

GRAMMATIKA

1. *-lah* suffiksi buyruq maylidagi fe'lga qo'shilib, xushmuomalikni bildiradi. Bu buyruq ma'nosidan ko'ra marhamat/ iltimos ma'nosini ifodalaydi.

Datanglah ke rumah besok! - Iltimos ertaga uyga keling.

Masuklah - Marhamat kiring.

Berbicaralah pelan - pelan - Iltimos sekin - sekin gapiring.

Pakailah sabun ini! - Mana bu sovundan foydalaning.

Tolonglah kami! - Iltimos bizga yordam bering.

2. Ko'plik

2.1 Malayziya tilida ko'plik ot turkumidagi so'zlarni takrorlash orqali yasaladi.

anak - anak - bolalar

burung - burung - qushlar

rumah - rumah - uylar

kue - kue - piroglar, biskvitlar.

2.2 Agar otdan oldin son yoki *semua* (hamma), *beberapa* (bir necha), *banyak* (ko'p), *sedikit* (bir necha, biroz) kabi ravishlar ishlatilsa, u holda ot takrorlanmaydi.

tiga(buah) kursi - uchta stul

sepuluh (ekor) anjing - o'nta it

dua(orang) sopir - ikkita haydovchi

semua rumah - hamma uylar

beberapa kamar - bir necha

banyak orang - ko'p odamlar

sedikit surat - bir necha xat

1. saja - - gina

2 hari *saja* - 2 kungina

Saya minum 1 gelas *saja* - Men bir stakangina ichdim.

Ba'zan u '*hanya*' bilan ham ta'kidlanadi.

Kami tinggal di Hongkong *hanya* 1 minggu *saja*. - Biz Gonkongda faqat bir haftagina turdik.

4. *baru* fe'l oldidan qo'llanilib, "yaqinda, yaqindagina" degan ma'noni bildiradi.

Tuan Haris *baru* datang dari New York. - Janob Haris NyuYorkdan yaqindagina keldi.

Ayah *baru* kembali dari kantor. - Otam hozirgina ofisdan qaytib keldi. Mereka *baru* kawin - Ular yaqinda turmush qurishgan.

YANGI SO'ZLAR

taman - bog'

matahari - quyosh

bulan - oy

bintang - yulduz

bersinar - charaqlamoq

berjalan - jalan sayr qilmoq

burung - qush

terbang - uchmoq

pemuda – o'smir
pacar – sevgan kishisi (qizi yoki yigiti)
keliling – atrofi
pasir – qum
berteriak – baqirmoq
awas – ehtiyot bo'ling
dalam – chuqur
butir – uvoq, ushoq
langit – osmon
bangku – skameyka
ru menyalak – vovullamoq
mesin – mashina, motor
mesin tulis – yozuv mashinkasi
mesin cuci – kir yuvish mashinasi
mesin jahit – tikuv mashinasi
kawin – uylanmoq, turmushga chiqmoq
mengeluarkan – tashqariga chiqarmoq
beberapa – bir necha, bir qancha
memegang(pegang) – biror kimning qo'lini ushlamoq
gadis – qiz
senang – xursand

tertawa – kulmoq
pendek – pakana, kalta, qisqa
majalah – jurnal
menjawab – javob bermoq
cerita – hikoya
menhilang – yo'qolmoq, g'oyib bo'lmoq
mput – maysa

14-bo'lim bo'yicha mashqlar.

C. MASHQLAR

a. Quyidagi jumlar matnga muvofiqligini tekshiring.

1	Anak berenang di kolam.	
2	Seorang takut karena anaknya bermain di dekat kolam	
1	Gadis mengambil buku dari tasnya	
4	Mereka hanya mendengarkan musik	
5	Orang laki-laki itu mau duduk dengan gadis itu.	

b. Malayziya tiliga tarjima qiling.

1. Men uyga yetib borsam, senga qo'ng'iroq qilaman.
2. Biz bog'da o'tirdik va quyoshga qaradik.
3. Ketishingizdan oldin hamma eshik va derazalarni yoping va barcha shkafnlarni qulflang.
4. Mana bu hamma idish va chashkalarni yuving.
5. Men osmonda yulduzlarni ko'rdim.
6. Men bu yozuv mashinasidan foydalana olmayman, chunki u ishlaymayпти.
7. Bugun chiroq yo'q, biz kir yuvish mashinasini ishlata olmaymiz.
8. Mening faqat bitta krovatim va ikkita kichik stulim bor.
9. Biz xonaga kirganimizda bir necha qizlar hikoya o'qiyotgan ekan.
10. Yo'q, rahmat, men hozirgina tushlik qildim

11. Gunung Agung ingliz tilidagi jurnallar ham sotadi.
12. Menga yordam bering, men bu chuqur xovuzda cho'mila olmayman.
13. Ko'p odamlar qovurilgan jo'jani yoqtirishmaydi.

c. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Duduklah di sini dan tunggulah sampai saya kembali dari pasar.
2. Saya membaca sebuah cerita pendek dalam majalah yang saya beli minggu yang lalu.
3. Tiga ekor burung terbang dari pohon itu, ke atas atap.
4. Beberapa teman akan datang ke rumah kami malam ini.
5. Kami berjalan – jalan ke luar kota dan melihat matahari naik.
6. Saya bertanya, tetapi anak itu tidak menjawab.
7. Tuan Dahlan memakai sepatu hitam, ketika pergi ke pesta.
8. Kami tidak mau berenang di kolam yang dalam.
9. Kalau panas, kami memasang AC di kamar tidur.
10. Tuti baru pulang dari Surabaya; dia tinggal di sana satu malam saja.
11. Tiap orang yang memakai telepon harus membayar Rp 100
12. Pabrik ini membuat piring – piring dan gelas – gelas.
13. Ia tertawa mendengar cerita adik saya.
14. Sebuah mobil merah menunggu tamu – tamu di muka hotel itu.
15. Siapa yang akan memegang kopor besar itu?

d. Ushbu so'zlarining o'zagini yozing.

Menggambar – rasm chizmoq – gambar

Membuka – ochmoq	-.....
Menutup – yopmoq	-.....
Menangkap – ushlamoq	-.....
Menjawab – javob bermoq	-.....
Memakai – foydalanmoq, kiymoq	-.....
Membuat – yasamoq	-.....
Mengirim – jo'natamoq	-.....
Mengambil – olmoq	-.....
Mengisi – to'ldirmoq	-.....
Menjual – sotmoq	-.....
Mencoba – kiyib ko'rmoq	-.....

e. Gapdagi xatoni toping.

1. Jangan berpakailah sabun itu.
2. Matahari bersinar dan berjalan – jalan pada hari itu.
3. Mereka sudah baru pindah ke rumah di daerah Yunusabad.
4. Karena kolam berenang dalam ibu takut anaknya jatuh ke dalam itu.
5. Ada banyak bangku – bangku tetapi kita tidak bisa makan karena penumpangnya terlalu banyak.
6. Saya membeli dua ekor rumah.
7. Saya tidak bisa memasak, karena mesin tulisku rusak.
8. Anjing teman itu tertawa waktu kami mau masuk ke rumahnya.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq.

"Taman yang saya sukai" ("Men yoqtirgan istirohat bog'i") mavzuida insho yozing.

XV-bo'lim.

MAVZU NOMI: MENCARI KERJA.

GRAMMATIKA –lah suffiksi, silakan

Darsning o'quv maqsadi: Malay tilida iltimos, marhamat va buyruqni ifodalaydigan so'zlar to'g'risidagi talabalarni bilimlari kengaytirish.

Tayanch iboralar: suffiks, , buyruq mayli, ot turkumi. Affiks.

Matn.

MENCARI KERJA

+ Permisi, Pak. Saya ingin bertanya. Apakah di sini kantor Mobil Oil?

- Betul.

+ Saya mendengar, Mobil Oil perlu tenaga teknik. Saya ingin melamar.

- Masuklah. Saudara masuk kamar nomor 2. Di sana Saudara akan bertemu dengan Pak Suroso, Kepala Urusan Pegawai.

Pak Suroso: Duduklah. Isilah formulir ini. Tulis nama, umur dan alamat Saudara. Jangan lupa menuliskan pendidikan Saudara. Perusahaan kami

mencari banyak tenaga muda untuk daerah – daerah luar Pulau Jawa. Saudara suka bekerja di hutan, misalnya? Atau di laut di tempat pemboran minyak?

+ Suka sekali. Pak. Saya lulusan STM dan sudah lama mencari kerja. Saya mau bekerja di mana-mana. Saya tidak mau tinggal di Jakarta lagi. Hidup di kota terlalu mahal.

- Baik. Saudara kembali hari Senin. Saya akan memberi Saudara surat untuk dokter. Ia akan memeriksa badan Saudara. Juga jangan lupa membawa surat – surat dan ijazah Saudara.

+ Baik, Pak. Permisi.

B. GRAMMATIKA

XIV darsda aytib o‘tilganidek *-lah* suffiksi xushmuomalalikni bildirib, iltimosni yoki marhamat degan ma‘noni bildiradi.

Qiyoslang :

Masuk! – Kir!

Masuklah! – Marhamat kiring.

Pergi! – Bor!

Pergilah! – Iltimos boring.

Berdiri! – Tur!

Berdirilah! – Iltimos turing!

Buyruq gaplarning bo‘lishli va bolishsiz shakllarida *me-* old qo‘shimchali fe‘llarning faqat o‘zagi ishlatiladi:

Jangan buka jendela ini! – Derazani ochmang!

Jangan potong bunga ini! – Gulni kesmang!

Istisno: Agar *me-* old qo‘shimchali fe‘l o‘timsiz bo‘lsa, *me-* affiksi saqlanib qoladi.

menangis – Jangan menangis!

(yig‘lamoq) (Yig‘lama!)

merokok – Jangan merokok!

(sigareta chekmoq)(Chekmang!)

silakan xushmuomalikni bildiruvchi so‘z bo‘lib, biror narsani taklif qilishda ishlatiladi:

Silakan masuk! – Marhamat kiring!

Silakan tunggu di sini! – Marhamat shu yerda kuting!

Silakan merokok! – Marhamat cheking!

- *kah* suffiksi ko‘p hollarda so‘roqni ta’kidlash uchun ishlatiladi.

Apakah ini rumah Anda? – Bu sizning uyingizmi?

Bisakah Anda datang besok malam? – Ertaga kela olasizmi?

C. YANGI SO‘ZLAR

permisi – ruxsatingiz bilan

ingin – xohlamoq

tenaga – kuch(ishchi kuchi)

lulusan – bitirmoq

hidup – yashmoq

ijazah – sertifikat, diplom

melamar (lamar) – ariza yozmoq (ishga kirish uchun)

urusan – ish

mengisi (isi) – to'ldirmoq
pendidikan – ta'lim
perusahaan – kompaniya
laut – dengiz
daerah – hudud, tuman
pulau – orol
hutan – o'rmon
misalnya – masalan
pemboran – burg'ilash
minyak – neft
tangan – qo'l
formulir – forma, blanka
karcis – chipta
berdiri – turmoq
alamat – manzil
memeriksa (periksa) – tekshirmoq
badan – tana
kaya – boy
miskin – kambag'al
mudah, gampang – oson
murah – arzon
membuang – tashlab yubormoq

15-bo'lim bo'yicha mashqlar.

a. Savollarga javob bering

1. Siapakah Pak Suraso?
2. Pemuda itu mau bekerja di mana?
3. Apa artinya 'pemboran minyak'?
4. Pemuda itu belajar di mana?
5. Kapan dia bisa bekerja?
6. Apakah dia akan bekerja di Jakarta?

b. Malayziya tiliga tarjima qiling:

1. Uyg'oning, soat 6.10 bo'ldi! Siz idoraga borishingiz kerak. Kofeingizni iching va noningizni yeng! Mashina kutiyapti.
2. Idoraga borishdan oldin kinoteatrga chipta sotib oling.
3. Mana bu iflos qog'ozni tashlab yuboring va qo'lingizni yuving.
4. Biz Elly u yerda boshqa ishlamasligini bilamiz. U Manilaga jo'nab ketgan.
5. Neft narxi o'tgan oydan beri ko'tariyapti.
6. Men shu idoraning boshlig'i Janob Smit bilan uchrashmoqchiman.
7. Siz arzon buyumlarni mehmonxona yaqinidagi do'kondan sotib olishingiz mumkin.
8. Avtobus kelguniga qadar kuting!
9. Sovuq xonada juda uzoq turmang.
10. Asosiy yo'lning chap va o'ng qismida biz ko'p bambuk daraxtlarini ko'ryapmiz.
11. Bu hududda ko'p kambag'al odamlar bor.
12. Bugun kechqurungi kecha uchun bizga yog' va sariyog' kerak.
13. Hozirda kompaniyaning Medandan tashqarida uchta zavodi bor.
14. Yakshanba kunlari oila dengizda cho'milish uchun Ancolga boradi.
15. Mening do'stim hovuzdagi baliqni tutishga harakat qildi.

c. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Tunggulah di sini! Bis itu akan membawa kamu ke terminal.
2. Kamu punya karcis? Aku lupa membelinya.
3. Beberapa hari yang lewat ia datang ke kantor kami melamar kerja.
4. Kita bisa berjalan – jalan di pulau itu dan melihat pohon – pohon di hutan.
5. Minumlah obat ini, sebelum tidur!
6. Pegawai – pegawai hotel itu bekerja sampai jauh malam, karena banyak tamu datang.
7. Pasanglah TV dan taruh buku – buku ini di lemari buku.
8. Di restoran itu orang bisa minta minuman dingin.
9. Kalau tuan akan tinggal lama di Malaysia, belajarlah bahasanya.
10. Pakailah bahasa yang baik dan orang akan mengerti.
11. Mobil kami berhenti beberapa menit menunggu Ibu Darpo.
12. Di bawah pohon besar itu kami melihat beberapa burung terbang.
13. Saya akan bertanya dan Nyonya menjawab dalam bahasa Malaysia.
14. Awas! Jangan merokok dalam kamar ini!

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq.

“Pekerjaan yang saya sukai” (“Men yoqtirgan kasb”) mavzuida insho yozing.

XVI-bo’lim.

MAVZU NOMI: DI TOKO.

GRAMMATIKA1 ko’plik shakllari, fe’llarning takrorlanishi. -an suffiksi.

Darsning o’quv maqsadi: so’zlar to’g’risidagi talabalarni bilimini kengaytirish.

Tayanch iboralar: suffiks, o’zak “ada” “ega bo’lmoq.”

Matn.

DI TOKO



- Silakan masuk, Nyonya. Nyonya bisa melihat – lihat. Di sini ada bermacam – macam batik, ukiran – ukiran dari Jepara dan Bali. Ada pakaian untuk pria dan wanita. Kemeja – kemeja dan taplak – taplak dari batik halus. Ini barang – barang dari perak buatan Yogyakarta. Juga ada lukisan – lukisan dari pelukis – pelukis terkenal.
- + Saya mau ukir – ukiran dan kotak – kotak yang akan saya kirim kepada orang tua saya di Amerika.
 - Nyonya silakan pilih yang mana Anda suka.
 - + Berapa harganya ini?
 - Yang besar Rp 1000, dan yang kecil Rp 2000.
 - + Saya pilih ini, keranjang dari rotan.
- Keranjang ini Rp 1750. Semuanya Rp 4750. Nyonya kasi saja alamat di Amerika dan kami akan kirim dengan pos udara. Dalam satu minggu sudah sampai. Nyonya harus membayar ongkos; tidak banyak.
- + Baik, sekarang saya mau melihat kain batik.

- Ini baik sekali untuk baju Nyonya, dengan bunga – bunga besar. Nyonya lihat di kaca. Manis sekali. Lihat! Ada bermacam – macam warna, coklat, hijau, biru tua.

+ Bisa membayar dengan dollar? Ini kartu saya.

- Tentu saja.

B. GRAMMATIKA

1. Ko’plik(davomī) XIV DARS ga qarang.

Agar ko’plik kontekstdan ma’lum bo’lsa, otlar takrorlanmaydi. Quyidagi gaplarga diqqat qiling.

Kita punya *mata* untuk melihat, *telinga* untuk mendengar. – Bizni ko’rish uchun ko’zimiz va eshitish uchun qo’log’miz bor.

Kita berdiri di atas *kaki* kita. – Biz oyog’mizda turamiz.

Yodda tuting: *mata* – *mata* umuman boshqa ma’no, ya’ni “ayg’oqchi” degan ma’noni bildiradi

2. Fe’llar ham takrorlanadi:

berjalan – jalan – aylanib yurmoq, sayr qilmoq

bermain – main – atrofda o’ynamoq

melihat – lihat – atrofga qaramoq

membeli – beli – narsalar xarid qilmoq

membaca – baca – ko’p narsalar o’qimoq

Ushbu takror tez – tez bajariladigan ish – harakatni ifodalaydi.

1. -an suffiksi fe’l turkumidagi o’zakka qo’shilib, harakat natijasini bildiradi.

So’z o’zagi	Ma’nosi	An – suffiksili otlar	Ma’nosi
makan	ovqatlanmoq	makanan	ovqat
minum	Ichmoq	minuman	ichimlik

masak	pishirmoq	masakan	pishiriq
buat	yasamoq	buatan	mahsulot(yasalgan narsa)
pakai	Kiyimoq	pakaian	kiyim
tulis	yozmoq	tulisan	yozuv
baca	o'qimoq	bacaan	o'qish
cuci	yuvmoq	cucian	kir (kiyim)
bayar	to'lamoq	bayaran	to'lov
ukir	taxtani o'yib naqsh solmoq	ukiran	o'ymakorlik buyumi
lukis	rasm chizmoq	lukisan	rasm

4. "ada" "ega bo'lmoq" ma'nosida.

Doimiy so'zlashuv nutqda **ada** fe'li *ega bo'lmoq* ma'nosida ishlatiladi.

Nyonya Nani **ada** 1 orang anak perempuan. – Nani xonimning uchta qizi bor.

Ardi belum **ada** rumah – Ardining hali uyi yo'q.

Tuan **ada** pensil? – Sizning qalamingiz bormi?

Kami **ada** AC di rumah – Bizning uyimizda kondisionerimiz bor.

Ia tak **ada** uang – Uning puli yo'q.

C. YANGI SO'ZLAR

melihat – lihat – shunchaki ko'rmoq (sotuvdagi buyumni)

(ber) **macam – macam** – har xil

ukiran – o'ymakorlik buyumi

taplak – dasturxon

halus – yupqa

perak – kumush

emas – oltin, tilla

pelukis – rassom

melukis – rasm chizmoq

terkenal – mashhur

kotak – quti

orang tua – ota – ona

memilih (pilih) – tanlamoq

keranjang – savat

ongkos – narx

kaca – oyna

tentu saja – albatta

cincin – uzuk

16-bo'lim bo'yicha mashqlar.

Savollarga javob bering (matnga binoan)

1. Barang – barang yang mana dijual di toko itu?
2. Butatan perak dari kota mana?
3. Perempuan itu membeli berapa barang?
4. Nyonya melakukan apa di toko?
5. Berapa harga keranjang yang dia beli?
6. Apakah dia membayar dengan rupiah?

b. Malayziya tiliga tarjima qiling.

1. Agar biz u yerga Jeepda borsak, ovqat va ichimliklarni qaerga qo'yamiz?
2. Men Yava taomlarini yoqtiramanmi, yo'qmi, bilamayman. (bog'lovchi – *apakah*)
3. O'sha xonim 5 ta tarelka sotib oldi va ularni katta savatga soldi.
4. Iltimos, poyezd yetib kelgunicha kuting.
5. Men xizmatkorga bugun kir (yuviladigan kiyim) yo'qligini aytdim.
6. Bu do'kondagi hamma buyumlar Malayziya mahsulotlari.
7. Hamma odamlar ichimlik uchun to'lashlariga to'g'ri keladi.
8. Mana bu dorini uxlashingizdan avval iching.
9. Mana bu kimning yozuvi ekanligini Siz o'qiy olasizmi?
10. Yo'ning chap tomonida yangi uylarni ko'ryapmiz.
11. Uyning orqasida chiroyli gulzor bor.
12. Bu qog'ozning rangi to'q qizil.
13. Uzi, men bu yozuvni o'qiy olmayman.

14. U qutini Avstraliyadagi do'stiga jo'natdi.
15. Yana bitta kumush qoshiq va bitta tilla soat bor edi.
16. Diqqat, bu avtobusda chekmang.

c. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Berapa ongkos dari sini ke Cipanas?
2. Saya taruh semua pakaian kotor di kamar mandi.
3. Dia menulis surat kepada orang tuanya minta uang untuk membeli buku – buku.
4. Ukiran yang bagus ini buatan Jepara.
5. Sopir kami berhenti dim ka kantor pos untuk membeli bensin.
6. Ibu memilih cincin dari emas.
7. Kami sekarang ada mesin cuci.
8. Orang sakit itu tidak boleh mandi dengan air dingin.
9. Kalau kamu sakit, pangillah dokter.
10. Jangan buang sampah di dalam rumah!
11. Dengarlah ibu menyanyi!
12. Ada minyak dalam botol kecil itu.
13. Buku siapa ada di bawah tempat tidur?
14. Pergilah membeli perangko dan kirim surat ini dengan pos udara!

d. Savollarga javob bering. (mantiqiy)

1. Berapa makanan dan minuman Malaysia saudara sudah tahu?
2. Apa artinya 'saya melihat – lihat saja'?
3. Bisakah saudara jelaskan ini 'bermacam – macam warna'?
4. Mengapa barang yang buatan luar negeri mahal?
5. Siapa bisa membaca tulisan dokter?
6. Mengapa banyak orang suka pakaian olahraga?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq.

"Di pasar" mavzusida insho tuzing hamda fe'llarning takrorlanishiga 15ta misol keltiring.

Qaydlar uchun:

Mundarija

Kirish.....	2
I Bo'lim. Salomlashuv.....	5
II Bo'lim. Sonlar, hafta kunlari, oylar.....	8
III Bo'lim. Tuan Clark matni. Kishilik olmoshlari.....	14
IV Bo'lim. Rumah saya matni. Sifat.....	19
V Bo'lim. Nyonya Wilson di telepon matni. Fe'l.....	25
VI Bo'lim. Rumah kami di Kebayoran matni. Old ko'makchilar.....	10
VII Bo'lim. Ke supermarket matni. "naik", "juga", "ikut", "kasi", "habis", "bilang" so'zlarining qo'llanilishi.....	16
VIII Bo'lim. Pemeriksaan KTP matni. So'roq olmoshlari.....	40
IX Bo'lim. Pergi berenang matni. Malay tilida fe'l zamonlari.....	49
X Bo'lim. Hujan matni. Vaqtni ifodalovchi iboralar.....	51
XI Bo'lim. Surat dari Kardi matni. "Yang", "Yang mana?"so'roq olmoshlari.....	57
XII Bo'lim. Pesta matni. Payt ravishlari	61
XIII Bo'lim. Di restoran matni. Fe'llar. ber- old qo'shimchali fe'llar.....	69
XIV Bo'lim. Di Taman Surapati matni. GRAMMATIKA. <i>-lah</i> suffiksi. Ko'plik. Malay tilidagi ravishlar.....	78
XV Bo'lim. Mencari kerja. GRAMMATIKA <i>-lah</i> suffiksi, <i>silakan</i>	85
XVI Bo'lim. Di toko. GRAMMATIKA – ko'plik shakllari, fe'llarning takrorlanishi. <i>-an</i> suffiksi.....	90

Qaydlar uchun:

Texnik muharrir: M.M. Zarifov

Komputer verstkasi: D.U.Arifjonova

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma №1. 11.11.2009)

Bosishga ruxsat etildi 09.12.2009

Bichimi 60x84 1/6 Shartli 4.5 b.t. 100 nusxada bosildi

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009